SO‘Z VA FRAZEOLOGIZMLARNING BIR-BIRIGA EKVIVALENT YOKI MUTANOSIB EMASLIGI NAZARIYASI

Solieva Muhayyo Toirovna, Jizzax politexnika instituti Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti
e-mail:soliyevamuhayyo@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslikda so‘z va sinonimik qatorlarning qiyosiy tahlili, ularning leksik tarkibi, o‘xshash va farqli jihatlari misollar yordamida tahlil qilingan. Nutqimizdagi faol iboralarning ma’no sinonimlari va nutqiy sinonimlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqdorligi ahamiyatiga ham alohida misollar bilan to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. frazeologik ekvivalent, frazeologizm, frazeologik sinonim, frazema, leksik-frazeologik sinonim.

ТЕОРИЯ СЛОВ И ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, НЕЭКВИВАЛЕНТНЫХ ИЛИ НЕПРОПОРЦИОНАЛЬНЫХ ДРУГ ДРУГУ

Аннотация. В статье на примерах проводится сравнительный анализ лексико-фразеологических синонимических рядов в английском и узбекском языках, их лексический состав, сходные и разные аспекты. Также на специальных примерах рассматривается значение синонимов активных выражений в нашей речи и значение отрицательной и положительной окраски речевых синонимов.

Ключевые слова: фразеологический эквивалент, фразеологизм, фразеологический синоним, лексико-фразеологический синоним.

THEORY OF WORDS AND PHRASEOLOGISMS ARE NOT EQUIVALENT OR PROPORTIONAL TO EACH OTHER

Abstract: In the article, a comparative analysis of lexical-phraseological synonymous rows in the English and Uzbek languages, their lexical composition, similar and different aspects are analyzed with the help of examples. The meaning synonyms of active expressions in our speech and the importance of negative and positive coloring of speech synonyms are also discussed with special examples.

Key words: phraseological equivalent, phraseologism, phraseological synonym, idiom, lexical-phraseological synonym.

Kirish. Frazeologiyaning lingvistik fan sifatida rivojlanishi keyingi vaqtlarda tadqiqotchilar oldida anchayin murakkab muammoni – frazeologik birlikning so‘z bilan munosabati aloqasi muammosini keltirib chiqardi. Zamonaviy tilshunoslikda bu savolga bog‘liq turli-tuman nuqtai nazarlar mavjud. Ba’zilar frazeologik birliklar

so‘zlarning ekvivalentlari deb aytishsa, boshqalari ularni frazeologik birlikning so‘zga ekvivalentligi nazariyasi Sh. Balli tomonidan ishlab chiqilgan ekspressiv faktlarning identifikatsiya konsepsiyaga borib taqaladi deb hisoblashadi. Bunda frazeologik qurilmalarning umumiy xususiyati, berilgan birikma o‘rniga bitta oddiy so‘z qo‘yishi imkoni borligi yoki yo‘qligi nazarda tutilgan. Bunday so‘zni Sh. Balli «identifikato» – so‘z deb atagan. Balli bunday sinonimning mavjudligini frazeologizmlar butunligi xususiyatining ichki sifati kabi ko‘rib chiqadi. Bu konsepsiyaga ko‘pchilik lingvistlar (H. H. Amosova, B. P. Jukov, A.V. Kunin, A .I. Smirnitskiy) qo‘shilishmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologizmlar mavzusi bir qancha tilshunos olimlar tomonidan yillar davomida o‘rganib kelingan. Jumladan, o‘zbek olimlaridan M. A. Hamroyev, O‘.Q. Yusupov, M. Mirzayev, H. Ne’matov, Sh. Orifjonova, R. Rasulov kabi mutaxassislar o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar ustida tadqiqotlar olib borishgan.

“Frazeologizmning semantik yaxlitligi oddiy yo‘l bilan o‘rnatilmaydi”, – deb yozadi V. P. Jukov frazeologiya haqidagi o‘z ishida. Zero so‘zning o‘zgaruvchan birikmalari ham sinonim so‘zlari bo‘lishi mumkin.

Masalan, *look fixedly – to stare*; *sufferings of mind or body – pain*.

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, frazeologizmlar ko‘p hollarda so‘zga o‘xshash, garchi frazeologik birliklarning ma’nosi va ular identifakatsiya qilinayotgan so‘zlarning ma’nosi o‘rtasida qoida bo‘yicha tenglik belgisini qo‘yib bo‘lmaydi. Frazeologizm semantikasining ko‘rinarli elementi ular ifodalayotgan tushunchaning baholanishi bo‘lib shu bilan bir vaqtning o‘zida so‘zning ma’no strukturasi uchun baholash xususiyati past darajada bo‘ladi.

Ko‘p hollarda frazeologizmlar va ular bilan tenglashtirilayotgan so‘z stilistik bo‘yoqdorligi bilan farqlanadi va alohida so‘zlarga nisbatan frazeologik birliklar ideografik sinonimlar emas, balki stilistik sinonimlar rolida namoyon bo‘ladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, maqollar va matallar ya’ni gap tuzilishidagi frazeologizmlarni faqatgina gap yordamida tanib olish mumkin.

Masalan: *Birds of a feather flock together – people who have the same interests, ideas, are attracted to each other and stay close together*;

The blind leading the blind – a situation in which the person who is leading or advising others knows a little as they do;

Frazeologik birliklarning semantik butunligini uning ma’nosi uning komponentlarining ma’nosi bilan qiyoslaganda hamda uning kontekstda qo‘llanilishi xususiyatlarning namoyon bo‘lishi bilan ifodalash mumkin.

“Frazeologizm va so‘z” muammosida asosan ikki yo‘nalish aniqlangan:

1) tor tushunish – leksikologiyaning qismi sifatida qarash, yani frazeologik birlik so‘zga ekvivalent sifatida;

2) keng tushunish – frazeologik birliklar obyekti bo‘lgan ayrim fan sifatida qarash mavjuddir.

To‘liq ekvivantlentlik nazariyasining ba’zi bir tarafdorlari (N. N. Amosova, A. E. Smirnitskiy va boshqalar) frazeologizmni leksik birlik sifatida ko‘rib chiqishadi; ular maxsus o‘ziga xos klassifikatsiyaga muhtoj bo‘lmaydi va ularni xuddi so‘zlar kabi klassifikasiya qilish lozim. A. E. Smirnitskiy, masalan,

frazeologizmni leksikologiya tarkibiga kiritgan. Shunday qilib, so‘z, u qanchalik semantik tuzilishi jihatidan murakkab bo‘lmasin, frazeologiya sohasiga tegishli emas, u leksikologiya va leksikografiyaning obyektidir [6, 57-b].

So‘z va frazeologizmlar nutqqa tayyor holda kirib keladi. Bu fakt yaxlit ekvivalentlik nazariyasining foydasiga xizmatt qiladi. Frazeologizm so‘zga mansub emas va unga butunligicha ekvivalent emas. U o‘zida murakkab turdagi leksik birlikni namoyon etadi.

Frazeolgik birlikni bus-butunlikda ham gapda ma’nosini yo‘qotmagan holda qisman ishlatish mumkin. L. B. Sherba “so‘z ekvivalenti” terminiga asos soldi. Uning ta’kidlashicha, bunday so‘zlar guruhi Frazeologik birlik o‘rnini to‘liq bosa oladi. Haqiqatdan ham, bunday so‘zlar guruhi so‘z birikmasi bo‘lsa, bir xil ma’no beradi. Fe’lli frazeologik birlik va sinonim identifikator so‘zlar bir-biri bilan sinonim bo‘lib, ot bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: *draw (*yoki *pull), a (*yoki *the) long bow – exaggerate, shake a leg-hurry, split hairs-quibble* va b.

Frazeologik birlik har xil ko‘rinishda bir ma’noni anglatadi, ya’ni ikki xil nomlanadi:

1-guruh so‘zlar xuddi o‘sha ma’no bo‘lsa, 2-guruh so‘zlar bir xil ko‘rinishdagi, lekin ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlardir [3, 120-b]

Tahlil va natijalar. Y. R. Gepnerning ta’kidlashicha, ba’zi bir frazeologik birliklarni xuddi o‘zidek tarjima qilib bo‘lmaydi. Ko‘pgina frazeologik birliklarning o‘rindosh so‘zlari yo‘q bo‘lib, sinonim so‘zlar bilan ifodalanadi. Aniq tarjimalari fransuz tilida mavjud. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fransuz tilida 22851 frazeologik birlikdan 2867 tasi, ya’ni 2,5 % ning idintifikator so‘zlari mavjud. Ingliz tilida ham xuddi shunday. Ba’zi bir nazariya tarafdorlari o‘rindosh so‘zlarni leksik birlik sifatida ko‘rish kerakligini, faqat ularga xoslik bilan guruhlarga ajratish kerakligini aytishadi. Bunga ko‘ra frazeologik birliklarning xususiyati yo‘qqa chiqadi. So‘zlar yasalishiga ko‘ra frazeologik birliklarga kirmaydi, bu so‘zlar leksikologiyaning bir obyekti hisoblanadi. Frazeologik birlik va so‘zlar gaplarda tayyor holda ishlatiladi. Bu ekvivalent (o‘rindoshlik) foydasiga ishlatiladi. Frazeologik birliklar va so‘zlarning grammatikasi ham ancha mo‘rt. Haqiqatdan ham, ular gapda gap bo‘laklari: frazeologik ega, frazeologik kesim va frazeologik to‘ldiruvchi vazifasida butunligicha keladi. Gapda qisman solishtirma fe’l bo‘lib ishlatiladi. Masalan: *eat like a horse-ko‘p ovqatlanish, fit like a glove-to‘la mos kelmoq, smoke like a chimney-ko‘p chekmoq, poezdek tutamoq* va bunday ifoda uslubiy bo‘yoqdorlikni oshiradi.

Umuman olganda, gapda kelayotgan FB aniq bir leksik ma’noni beradi deyish noto‘g‘ri. Frazeologiyaga yondoshuvda frazeologiya ekvivalent so‘zlarni o‘z ichiga olmaydi. Sintaksis, grammatika bo‘limida so‘z birikmalari va gaplarda FB tuzilishi, guruhlanishi va ishlatilishi o‘rganiladi. Ba’zan har bir muallif iqtiboslarida o‘ziga xos FB ishlatadi. Frazeologiyalarning asosiy vazifasi–gaplarning mazmunini aniqroq yoritib berishdan iboratdir. Muloqotlarda FB ni o‘z ma’nosida ishlatib bo‘lmaydi. Gap shundaki, zamonaviy ingliz tili fe’lli FBni, so‘z birikmalarini, maxsus sinflarga ajratilib majhul nisbatda ham ishlatiladi. Masalan: *break the ice –the ice is broken; cross the Rubicon-the rubicon is crossed* va boshqalar. Maqollarda alohida ishlatilgan FBlarning ba’zilari mustaqil ishlatilishi mumkin, ammo matallarga bu narsa to‘g‘ri kelmaydi. Shunga ko‘ra FBda fe’lning majhul nisbati frazeologik birikma hisoblanadi

va til qonunlariga buysunmaydi. Frazeologizmlar gapning butun birliklari vazifasini bajaradi. Masalan: *the fat is in the fire- falokatga uchramoq, the cat won't jump-bu nomeringiz o'tmaydi., what Mrs. Grunny say?-Odamlar nima deydi?* Tilshunoslikda bu alohida bo'limga aylangan.

Maqollar xalq og'zaki ijodida ham, leksikologiyada ham bir xil nuqtai nazardan o'rganiladi. Leksikologiyada maqollar fe'lning FBida tilda ma'no farqlash, gap tuzish nuqtai nazaridan o'rganiladi. Zamonaviy ingliz tilida maqollarni FB sifatida o'rganish katta ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodida, maqollarda xalq donoligi, xalq urf-odatlari, harakatlari ham o'rganiladi. A. I. Smirnitskiy gap tuzilishida tilning imkoniyatlarini, shuningdek, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar til hosilasi, so'z birikmalari sifatida qabul qilinmaganligini ta'kidlab o'tgan. Muloqot jarayonida tilning aniq, ma'noli, timsolli bo'lishiga xizmat qiladi. Ko'rib chiqqan asarlarimiz (muallifi mavhum, noma'lum bo'lsa ham) tilning alohida holatda xarakterini ko'rsatib bera olmaydi,shuning uchun xalq og'zaki ijodida va adabiyotga taalluqli til birliklari shu tariqa hosil bo'ladi.[4, 71-b.]

Smirnitskiyning fikriga ko'ra, maqollar butun gap birlikilari sifatida til tizimiga kirmaydi. So'z bilan ibora o'rtasidagi farq shundaki, so'z bir ma'noga fraza ikki so'z va undan ortiq so'zlar ma'nosi bir so'zga teng bo'ladi.

So'z va iboraning ma'no tuzilishi o'rtasidagi farq so'z ma'nosi va frazeologik ma'noga egalikni bildiradi. Zamonaviy ingliz tilida muhim frazeologik birliklarning eng muhim xususiyati shundaki, ular alohida so'zlar bilan birgalikda ma'no anglatmaydi, quyida berilgan frazeologik birliklarning leksik sinonimlari mavjud emas. Masalan: *apple-pie order- namunali tartib, Dutch courage-mardlik, Hobson's choice-tanlovning yo'qligi, a rough diomand-qo'pol, ammo yaxshi inson, a wolf in sheep's clothing - qo'y niqobidagi bo'ri* va boshqalar.

Bunday holatlarda muqim frazeologik birlik leksik sinonimga ega, so'z neytral bo'ladi, frazeologik birlik bo'yoqdorlikka ega bo'ladi. Keltirilgan misollar bu holatni yaqqol namoyon etadi: *Camel-the ship of the dessert; jealousy-the green eyed monster; lion-the king of beasts; monkey-the sinew of war; rank, title-a handle to one's name; Shakespear-the Swann of Avon; tea-a cup that cheers but not inebriates* va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan misollar perifrazalar hisoblanadi. Perifrazalar ba'zi kontekstlarda frazeologik birliklarning bir so'z bilan ataluvchi nomlarni, so'zlarni almashtirish xususiyatiga ega tuzilmalardir.

Frazeologik va leksik ma'no tuzilishini bir-biriga aynan o'xshamasligini leksik va frazeologik sinonimlar (ma'nodoshlar) qatorini solishtirib bilish mumkin:

Frazeologik birliklarda *o'lmoq* fe'lini frazeologik birlik go over to the majority, go the way of all flesh, go up to the flume beradi. Bir frazeologik birlik bir ma'noni bildiradi. *To die* fe'li ko'p ma'noli:

1) o'lmoq; 2) tugamoq; 3) unutilmoq; 4) yo'qolmoq va b. Lug'atlarda *o'lmoq* ning 3 asosiy ma'nosi, katta Oksford lug'atida 12 ta ma'nosi ko'rsatilgan:

go over to the majority-hazil ma'nosini bildirib, narigi dunyoga jo'namoq;

go way of all flesh-adabiy tilda erdagi tashvishlardan xalos bo'lmoq ma'nosini beradi;

go up to the flume-amerikaliklar oddiy so'zlashuv nutqida dub bermoq, yashikda

o‘ynamoq ma’nosini beradi.

To die fe’lining ma’nosi uslubiy neytral emas. Yuqorida keltirilgan frazeologizmlar bo‘lak yoki qisman ma’no bildirishi, leksik ahamiyatga egalik natijasidir.

Frazeologik birliklar alohida-alohida hosil bo‘lgan, ular ikki va undan ortiq komponentdan iboratdir. *To die* fe’li yaxlit hosil bo‘lgan ta’limotdir. *go over to the majority, go the way of all flesh, go up to the flume* iboralarini hosila deb hisoblash kerak emas. *To die* fe’li *away, down, off* kabilar bilan birga qo‘llaniladi. *die* away – tovushning pasayishi; shamolning pasayishi; die down – olovning susayishi; *die off* – birin-ketin o‘lmoq; die out – olovni o‘chirmoq kabi ma’nolarni beradi.

Umuman *to die* fe’lining xususiyatlari frazeologik birliklarga nisbatan juda katta. Misollar, so‘z birikmalari hosil qilishga hizmat qiladi. Masalan, *die a natural death* –to‘satdan vafot etmoq; *die a violent death* o‘ldirilish, qotillik; a *hero‘s death* – qahramonlarcha halok bo‘lish va b.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan xulosa shuki, frazeologizmning ekvivalentlik nazariyasiga ko‘ra so‘zlarni iboralardan ajratib bo‘lmaydi. So‘z bilan iboralar bir xil o‘xshashlikka ega degan fikrga borib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham frazeologizmlarni bir-birini o‘rniga almashtirish, so‘z o‘rnida qo‘llash boshqa qonunlar asosida qo‘llaniladi. So‘z birikmalarni hosil qilishda so‘z va iboralar bir xil vazifani bajaradi, ya’ni ma’no bildirishi, uslubiy tuzilishi, grammatik talaffuzining xususiyatlariga ko‘ra frazeologizmlar va so‘zlar fikr hosil qilish xususiyatiga ega. Frazeologizm va so‘zlarning ma’no jihatidan umumuiy tuzilishi so‘zning ma’nosini yo‘qotmaydi. So‘zning ma’no, grammatik jihatidan tuzilishi gap tuzish, imlo xatolarisiz yozish, gapdagi fikrlarni ifodalashda eng muhim element hisoblanadi.

Xulosa qilganda, “So‘z va frazeologik birlik” muammosi – bu turli munosabatlari va aloqalarining murakkab va qalin chatishuvidir. Taxminlardan ko‘rinib turibdiki, “frazeologik birlik va so‘z” muammosi umumiy muammolar sirasiga taalluqli va ayni damda juda muhim. Tilning frazeologik tizimi nazariyasiga asos solinishi ko‘p ishlamagan sohadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 1981.
2. English word. Arnold. – P. 77-197.
3. H. Ne’matov, R. Rasulov. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent, 1995.
4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980.
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1966.
6. Yusupov O‘. Q. Ingliz va o‘zbek tillarining chog‘ishtirma lingvistikasi. – Toshkent, 2013. – B. 22-23.
7. Mirzayev M. va boshqalar. O‘zbek tili. – Toshkent, 1978.
8. Hamroyev M. A. Ona tili. – Toshkent 2008, – B. 26.
9. Orifjonova SH. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya. NDA. – Toshkent, 1996.
10. Мирзаев М. ва бошқалар. Ўзбек тили. – Тошкент, 1978.
11. Мамаризаева Ф. Литеральный перевод – средство литерального

общения и взаимодействия / Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 2022. *6* (3). – P. 50-55.
https://www.scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/78